



O'ZBEK TILIDAGI FLORONIMLARNING LEKSIK VA SEMANTIK GURUHLARI

Kodirova Khusnora Rustamjon qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilidagi floronimlatning leksik-semantik xususiyatlari va ularning ma'lum bir guruhlarga ajratilishi hamda til tizimidagi ajralmas o'rni tahlil qilinib, ko'rib chiqiladi. Floronimlar, yani o'simlik nomlari xalqlarning tabiat bilan bog'liq madaniyati, tasavvuri, va turmush tarzlarini ifoda ettiruvchi muhim leksik qatlam hisoblanadi. Tadqiqotda o'zbek tilidagi floronimlarning asosiy leksik-semantik xususiyatlari va guruhlari misollar orqali ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Floronim, leksik-semantik guruh, o'simlik nomlari, leksikologiya, semantika.*

KIRISH

Til har bir insonning madaniyati va tafakkurining muhim ifodalaridan biri deb hisoblanadi. Har bir tilning o'ziga hos leksik boyligi va unda mavjud bolgan turli so'z qatlamlari orqali namoyonda bo'ladi. Mana shunday qatlamlardan biri o'simlik nomlarini bildiruvchi birliklar bu – floronimlardir.

Floronimlar tilshunoslikda o'simliklar nomlarini ifodalovchi leksik birliklar sifatida o'rganiladi. Ular nafaqat tabiat xodisalarini nomlashda ishlatiladi, balki millatning tarixiy tajribasini, dunyo qarashini, madaniyatini, turmush tarzini ham namoyon etadi. O'zbek tiliga kelsak, floronimlar unda juda rang-barang va boy bo'lib, ular xalqning ona tabiat bilan yaqin yaqin aloqada yashaganini isbotlaydi.

Tilshunoslikda floronimlar leksikologiya, onomastika, etimologiyada koproq tadqiq qilinadi. Ular asosan o'simliklarning tashqi ko'rinishi, biologik xususiyatlari, o'sish muhiti asosida nomlanadi. Shuning uchun, o'zbek tilidagi floronimlar leksik-semantik guruhlarga ajratilib, ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladi (Hojiyev, 2002). Onomastika nazariyasi bo'yicha faoliyat yuritgan rus tilshunosi A.V. Supernskaya nomlash tizimi, jumladan tabiat obyektlari nomlarini o'rganishga ulkan xissa qo'shgan.

Mazkur ilmiy ishning maqsadi o'zbek tilidagi floronimlarning leksik-semantik guruhlari aniqlab, ularni til tizimidagi o'rnini tahlil qiladi.

O'zbek tilidagi floronimlarning leksik guruhlari.

O'zbek tilida floronimlar o'zining biologik xususiyatlari va insonlarning hayotidagi muhim ahamiyatiga ko'ra turli xil leksik guruhlarga ajratib chiqiladi.

Gul nomlari: Gullar asosan o'zining bezak xususiyati, xushbo'yliigi va go'zalligibilan ajralib turadi. O'zbek tilida gul nomlari juda ko'p bora uchraydi. Masalan: lola, binafsha, qizilgul, atirgul, chinnigul kabi nomlar shular qatoridadir. Gullar nomlari ko'pincha bezak sifatida ekiladigan o'simliklarni bilidiradi. Bundan tashqari, ular she'riyatda, va badiiy adabiyotda va xalq og'zaki ijodida keng ko'lamda qo'llanib



kelinadi. Misol uchun, atirgul sevgi va go'zallik timsoli, lola esa bahor faslining ramzi sifatida ifodalanadi (Nurmonov,2010).

Daraxt nomlari o'zbek tilida alohida leksik guruhni tashkil etadi. Chunki daraxtlar inson hayotida juda muhim rol o'ynaydi, ular soyabon, oziq -ovqat, qurilish materiali va ekologikmuvozanat manbai deb hisoblaniladi. Masalan: terak, eman, chinor, tol, qarag'ay nomlari daraxt nomlarini bildiradi. Qizig'i, bu nomlar yana ko'pincha geografik joy nomlari yoki inson ismlarida ham uchrab turadi (Rahmatullayev, 2013).

Mevali o'simliklar. Mevali daraxtlar va o'simliklar o'zbek xalqining kundalik hayotida muhim o'rin egallaydi. O'zbek tilida mevali o'simliklarni bildiruvchi juda ko'p floronimlar uchraydi. Misol uchun: o'rik, nok, shaftoli, olma, anor kabi nomlarni ushbu guruhga qo'shamiz. Bu o'simliklar asosan oziq-ovqat manbai sifatida ham muhim rol oynaydi.

Dorivor o'simliklar. Dorivor o'simliklar inson hayot va salomatligi yo'idagi muhim vosita hisoblanadi. Agar o'zbek xalq tabobatiga nazar tashlasak, turli o'simliklar dori sifatida ishlatiladi. Masalan: romashka, zanjabil, rayhony, yalpiz, shular dorivor dorivor o'simliklar deb sanaladi (Hojiyev,2002).

Yovvoyi o'simliklar. Tabiatda o'zi mustaqil o'sa oladigan o'simliklar ham o'zbek tilidagi foloronimlar tarkibiga kiritiladi. Misol uchun: shuvoq, qiyog, qamish, shu kab nomlar yovvoyi o'simliklar guruhiga kiradi.

Floronimlarning semantik xususiyatlari.

O'zbek floronimari nafaqat o'simlik nomlarini bildiruvchi birliklar bo'lib, balkim turli xil ramziy va ko'chma ma'nolarni ham bildiradi. A. Nurmonov tilshunoslik nazriyasi va semantikani tizim sifatida o'rganib chiqqan. U o'zbek tilidagi leksik birliklarning semantik guruhlarga ajratilishiga ilmiy xissa qo'shgan. Masalan, atirgul sevgi va go'zallik ramzi sifatida qo'llaniladi. Lola guli esa, yoshlik, bahor, nafislik ramzi sifatida ifodalaniladi. Ayrim bir floronimlar maqol va iboralarda ham qo'llaniladi. Bunda ularning semantik iimkoniyatlari keng ko'lamda ekanligi ko'rsatiladi. Misol uchun, xalq og'zaki ijodida gul obrazlari ko'pincha insonning go'zalligi yoki pokligini ko'rsatib berish uchun ham qo'llaniladi. Qo'shimchasiga, floronimlar ko'p hollarda badiiy asarlarda tasviriy vosita sifatida ham qo'llaniladi. Yozuvchi va shoirlar tabiat manzaralarni ifodalashda turli xil o'simlik nomlaridan foydalanishadi.

Xulosa.

O'zbek tilida kelatiriladigan floronimlar, ushbu tilning boy, qadimiy va rang barang leksik qatlamlaridan biri xisoblanadi. Ular xalqning tabiat bilan bog'liq bilimlari, tarixiy tajribasi, estetik qarashlari va madaniyati tajribasini aks ettiradi. Floronimlar (O'simlik nomlari) leksik taraflama gul nomlari, dararxt nomlari, mevali o'simliklar, dorivor va yovvoyi o'simliklar kabi guruhlarga ajratiladi, hamda turli mezonlarga qaraganda shakllanishi bo'yicha ular tashqi ko'rinishi, foydali xususiyatlari va o'sish muhitiga asoslanib nomlangan. Semantik jihatdan ular, ko'p hollarda ramziy va ko'chma ma'nolarda ishlatiladi. Shuning uchun o'zbek tilidagi floronimlarni o'qib o'rganish, tilshunoslikda muhim ahamiyatga egaligi, va u tilning leksik boyligini



yaxshiroq tushunishga yordam beradi. O'zbek flaronimlari kelajakda tilshunoslikda lingvokulturologik, etimologik va semantik jihatdan yanada chuqurroq o'rganilib ilmiy olamga xissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR:

1. Hojiyev A. O'zbek tili leksikologiyasi | Toshkent : O'qituvchi, 2002.
2. Ferdinand de Saussure Course in General Linguistics \1910
3. Leonard Bloomfield Language, 1933.
4. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati \Toshkent, 2013.
5. Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi \ Toshkent : Fan, 2010.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati \ Toshkent: Universitet, 2013.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati \ Toshkent : O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
8. Supernskaya. A. Obshaya teoriya imeni sobstvennogo \ Moskva: Nauka, 2007.